

# **Samolyotda maxsus oziq-ovqatlarni oldindan buyurtma qilish**

**2022 19 April**

*Ushbu savol joriy yilning o'tgan oylarida yo'lovchilar orasida o'tkazilgan so'rovnomada kelib tushgan.*

Bugungi kunda "Uzbekistan Airways" AJ bortida O'zbekiston Respublikasi Sanitariya qoidalari va me'yorlari talablariga javob beradigan: vegetarian, musulmonlar taomi, bolalar ovqatlari, mevali oziq-ovqatlar, tarkibida kleykovina bo'lmagan maxsus oziq-ovqat turlari taqdim etilmoqda.

Eslatib o'tamiz, Uzbekistan Airways havo kemasi bortida parvozlarning davomiyligi, xizmat ko'rsatish klassiga qarab yo'lovchilarga nonushta, tushlik, kechki ovqat yoki salqin ichimliklar taklif etiladi. 2 soatgacha bo'lgan parvozlarda yo'lovchilarga shisha idishda suv, 2 soatdan ortiq davom etadigan parvozlarda esa issiq taomni o'z ichiga olgan oziq-ovqat taklif etiladi. Toshkent-Nyu-York-Toshkent yo'nalishidagi parvozlarda ikki marta issiq ovqat taqdim etiladi.

"Uzbekistan Airways" AJ yo'lovchilari aviachiptani rasmiylashtirishda yoki parvozdan oldin 48 soatdan ko'p bo'lmagan vaqtda "Maxsus taom buyurtma qilish" qo'shimcha xizmatidan bepul foydalanishlari mumkin. Eslatma: 2 soatgacha bo'lgan parvozlarda maxsus oziq-ovqat buyurtma qilish tartibi taqdim etilmaydi.